



ISLOM HUQUQINING BIRLAMCHI MANBALARI VA ULARNING TARKIBIY TUZILISHI

*O'zbekiston Xalqaro islomshunoslik
akademiyasi islom huquqi yo'nalishi
2-kurs magistranti **Abdreymov Nurbol***

Аннотация:

Maqolada Islom huquqining shakllanishi, fiqh ilmining tarkibiy tuzilishi va uning birlamchi manbalari ilmiy jihatdan tahlil qilingan. Usulul-fiqh va furu'ul-fiqh tushunchalarining mazmuni ochib berilib, Qur'oni Karim, Sunnat, ijmo' va qiyosning shariat hukmlarini belgilashdagi o'rni yoritilgan. Shuningdek, usulul-fiqh ilmining vujudga kelishi, rivojlanish bosqichlari, asosiy yo'nalishlari hamda Qur'on oyatlarining huquqiy ahamiyati, ularni talqin qilish va nasx masalasi ilmiy asosda bayon etilgan.

Kalit so'zlar Islom huquqi, fiqh, usulul-fiqh, furu'ul-fiqh, Qur'oni Karim, Sunnat, ijmo', qiyos, ijtihod, nasx.

Аннотация:

В статье рассматриваются процесс формирования исламского права, структура науки фикх и ее основные первоисточники. Раскрывается содержание усуль аль-фикха и фуру' аль-фикха, а также анализируется роль Корана, Сунны, иджмы и кыяса в установлении норм шариата. Особое внимание уделяется возникновению и развитию науки усуль аль-фикх, ее основным направлениям, а также правовому значению коранических аятов, вопросам их толкования и феномену насха.



Ключевые слова: Исламское право, фикх, усуль аль-фикх, фуру‘ аль-фикх, Коран, Сунна, иджма, кыяс, иджтихад, насх.

Islom dini Alloh taolo tarafidan insoniyatga Muhammad sollallohu alayhi vasallam vositasida etkazilgan bo‘lib, 610 yil Payg‘ambarimiz Hazrat Muhammad ibn Abdulloh sollallohu alayhi vasallam tomonidan yangi va eng mukammal ilohiy din sifatida barcha insoniyatga qarata e‘lon qilindi va oz muddat ichida dunyo bo‘ylab keng ko‘lamda tarqaldi. Hozirgi kunga kelib esa, jahon miqyosida musulmonlar soni bir milliard uch yuz million kishiga etib boradi.¹

Hazrat Muhammad (s.a.v.)ning hayotlari davomida yuz bergan hodisalar, ayniqsa, 23 yillik risolat - payg‘ambarlik davri voqealari borasida bugunga qadar minglab kitob va risolalar yozilib, ularda ushbu ulug‘ zotning tug‘ilishi, voyaga etishi, payg‘ambar qilib tanlanishi, shuningdek, axloq-odobi, oliy fazilatlari, huquqiy ta‘limoti va islom dinining barcha usul-qoidalari borasida keng qamrovli ma‘lumotlar berilgan. Shu bois, bugun tadqiqotchilar hech bir tarixiy shaxs haqida buncha ko‘p ma‘lumot-manbalarga ega emaslar.

Islom dini ko‘plab mamlakatlarga yoyilib, nafaqat din, balki ularning turmush tarzini belgilab beruvchi va nazorat qiluvchi tizimga aylanib borar ekan, uning muhim sohasi sifatida islom huquqshunosligining paydo bo‘lishi zarurati tug‘ildi.

Birinchi hijriy asrda islom huquqi shakllana boshlab, ikkinchi va uchinchi hijriy asrlarda taraqqiyot bosqichlariga ko‘tarildi.²

Islom huquqi ya‘ni fiqh ikki asosiy qismga bo‘linadi: usulul-fiqh va furu‘ul-fiqh.

Usulul-fiqh ulamolar izohlab berganidek, «idrokul-qavoidil-lati tubayyin

¹ Husniddinov Z. Islom: yunalishlar, mazhablar, oqimlar.–T.: Movarounnahr, 2000. B.6.

² J‘yazoniy. A.SH. Islom huquqshunosligi. Hanafiy mazhabi va ‘Yrta Osiyo

faqihlari. – T.: TIU, 2002 .B.17.



tariqata istixrojil-ahkom minal-adilla», ya'ni asosiy manbalardan hukmlarni istixroj qilib (chiqarib) olish yo'llarini belgilab beruvchi qoidalarni bilib olishdir.³

Furu'ul-fiqh esa usulul-fiqhda belgilab berilgan qoida va usullar orqali asosiy manbalardan chiqarib olingan far'iy (amaliy) hukmlar majmuasi bo'lib, fiqh ilmining tarmoqlari yoki sohalarini tashkil etadi.

Usulul-fiqh bir qator qoida va uslublardan iborat bo'lib, faqihlar faqat unda belgilangan qoidalarga asoslangan holda hukmlarni istinbot qilishadi.

I.Tabariy fikricha, "Usulul-fiqh" yoki "Usul" nomi bilan yuritiladigan fanga asos solishdan maqsad, shariat hukmlarini belgilab olish jarayonida yuzaga kelgan qoidalar va holatlarni klassifikatsiya qilish (tasniflash) va umumiyashtirish edi. Ushbu fanning qoidalarini yaxshi anglab olish ijtihod qilishga yordam beradi. SHu sababdan usul ilmi fiqh ilmining bir bo'lagi hisoblanadi⁴.

Tadqiqotchilar tomonidan usul ilmining paydo bo'lish jarayoni quyidagicha tushuntiriladi. Islom dinining asosi Qur'oni karimdir. Rasululloh sollallohu alayhi va sallam uni bizga so'zlari va amallari bilan bayon qilib berganlar. U zotning so'zlari va fe'llarini Sunnat deyiladi. Shariat hukmlarining asosiy manbasi shu ikki narsa Qur'on va Sunnatdir. Qur'oni karim arab tilida nozil qilingan. Sunnat ham uni arab tilida bayon qilgandir. Rasululloh sollallohu alayhi va sallam hayotlari chog'ida har qanday masalaning hukmini u zotdan so'rashar va javob olar edilar. Rasululloh sollallohu alayhi va sallam vafotlaridan so'ng insonlar orasida paydo bo'layotgan turli xil masalalarga javob berish va ularning hukmini belgilash sahobai kiromlarning zimmasiga tushdi. Ular arab tilini mukammal egallagan, uning uslublarini to'liq o'zlashtirgan va Rasululloh sollallohu alayhi va sallamga suhbatdosh bo'lishning misli ko'rilmagan ta'siriga ega bo'lgan, shariat

³ Ibn Amir Hoj. At-Taqrir vat-tahbir sharh-tahrir. – Bayrut.: Dorul fikr. 1996.– J. 1. – B. 34. (Bundan keyin: Ibn Amir.Taqrir.); SHavkoniy. Irshodul fuhul. – Bayrut.: Dorul kutub al-arabiy, 1999. B.18. (Bundan keyin SHavkoniy.Irshodul fuhul.)

⁴ I.Tabariy, Erondagi dunyoqarashlar va ijtimoiy harakatlar haqida tekshirishlar. – Kobul.: Davlat chop va nashr qo'mitasi, 1361 h.y. – B.221.



hukmlarining joriy bo'lish davrida yashab uning sir-asrorlariga voqif bo'lgan shaxslar edilar. Shu bilan birga ular fikrning tiniqligi va o'tkir zakovat bilan ajrab turar edilar. Shuning uchun ular masalalarning hukmlarini Qur'on va Sunnatdan chiqarib olishda yuqorida aytilgan sifatlaridan o'zga narsalarga ehtiyoj sezmas edilar. Yana ular e'rob, ishtiyoq kabi tilga oid qoidalarga ham ehtiyojlari yo'q edi. Sahobalarning fatvo beruvchilari yangi bir hodisaga duch kelsalar uning hukmini Qur'oni karimdan izlar edilar. Agar topa olmasalar Sunnatga murojaat qilar edilar. Undan ham topa olmasalar masalani ijtehad va qiyos orqali hal qilar edilar⁵. Bunday yo'lni ular Rasululloh sollallohu alayhi va sallamdan ta'lim olgan edilar.

Usulul--fiqh ilmi ikki yo'nalishga bo'lindi va ularning har biriga oid ko'plab asarlar yozildi⁶.

1. Mutakallimlar yo'nalishi. Uni shofeiylar yo'nalishi ham deyiladi. Bu yo'nalishning qoidalarini imom Shofeiyy ishlab chiqqan bo'lib, keyinchalik unga ko'ra ko'plab usuliylar va faqihlar kitob ta'lif etdilar. Bu yo'nalishning asosiy xususiyatlari unda avvalo umumiy qoidalar ishlab chiqilib keyin unga ko'ra juz'iy-furu'iy masalalar ishlab chiqiladi. SHuning uchun bu yo'nalishda kitob ta'lif etganlar ehtiyojlari bo'lmagani uchun furu' kitoblariga suyanmadilar.

2. Hanafiylar yo'nalishi. Uni fuqaholar yo'nalishi ham deyiladi. Bu yo'lga hanafiy mazhabi ulamolari asos solganlar va ularning o'zlari unga ko'ra kitoblar yozganlar. Keyinchalik bu yo'nalish ommaviy yo'nalishga aylandi. Ushbu yo'nalishda avval furu'iy masalalarga nazar solinadi, so'ng ulardan kelib chiqib umumiy qoidalar ishlab chiqiladi.

⁵ Mustafo I. Usulul fiqh fi nasijihil jadid. – BORDOD.: Alxanso, 2002. B. 9. (Bundan keyin Mustafo I. Usulul fiqh fi nasijihil jadid.); Xuzariy M. Usulul fiqh. – Misr.: Tijoriya, 1969. B.6. (Bundan keyin Xuzariy. Usulul fiqh.)

⁶ Xuzariy. Usulul fiqh. B. 7.



Keyinchalik bu ikki yo‘nalishni birlashtirgan holda asarlar yaratildi. Bundan uchinchi bir yo‘nalish kelib chiqdi.⁷

3. Mutaaxxirlar (keyingilar) yo‘nalishi. Bu uslub ettinchi hijriy yilda yuzaga keldi.

Bu uch yo‘nalishda ham ko‘plab kitoblar yozilgan bo‘lib ulardan ba’zilarini keltirib o‘tamiz.

Mutakallimlar yo‘nalishida yozilgan kitoblar:

1. Imom Shofeyning “Risola” asari.
2. Abul Husayn Basriyning “Kitobul mo‘‘tamad” asari.
3. Imomul Haramayn Abul Ma’oliy Juvayniyning “Burhon” asari.
4. Qozi Abduljabborning “Kitobul umda” asari.
5. Imom G‘azzoliyning “Mustasfo” asari.

Hanafiylar yo‘nalishida yozilgan kitoblar:

1. Abulhasan Karxiyning “Kitobul usul” asari.
2. Abu Bakr Jassosning “Kitobul usul” asari. Bu kitob avvalgisidan kengroq va batafsilroq yozilgan.
3. Abu Zayd Dabbusiyning “Ta’sisun nazar” asari. U kichik bir risola bo‘lib unda muallif hanafiy mazhabi boshqa mazhablar bilan ittifoq qilgan va ixtilof qilgan usuliy qoidalarga e’tibor qaratgan.
4. Imom Faxrul-islom Bazdaviyning “Usuli Bazdaviy” kitobi. U juda ham engil ibora bilan yozilgan bo‘lib, hanafiylar uslubida yozilgan kitoblar ichida eng yorqini bo‘lishga haqlidir.

Mutaaxxirlar yo‘nalishida yozilgan kitoblar:

⁷ Mustafo I. Usulul fiqh fi nasijihil jadid. B. 11.



1. Ahmad So'atij Bog'dodiyning "Badiy'un nizom aljome" bayna kitobay al-Bazdaviy val-Ihkom" asari. Bu kitob nomidan ham ko'rinib turganidek imom Bazdaviy va Omidiyning kitoblarini birlashtirilganidir.

2. Imom Sodrush-sharia Ubaydulloh ibn Mas'udning "Tanqihul usul" asari. Unda muallif Bazdaviyning "Usul", Roziyning "Mahsul" va Ibn Hojibning "Muxtasar" kitobini umumlashtirgan, keyinchalik o'zi uni sharhlab "At - tavzih fi halli g'avomiz At - Tanqih" nomli kitobini yozgan.

3. Imom Taftazoniyning "At-Talvih alat-tavzih" asari. Bu kitob juda ham bir muhim mo'tabar sharhdir. Darhaqiqat, bu asar ushbu fan bilan shug'ullanuvchi olim va talabalarning tayanchi bo'lishga munosibdir.

Islom huquqi ulamolari ya'ni fuqaholar o'z ilmiy ishlarida fiqhiy ijtihodlariga to'rtta narsani asosiy manba qilib olganlar. Ular Kitob, Sunnat, ijmo' va qiyosdir.

1. Kitob – Rasululloh sollallohu alayhi va sallamga nozil qilingan, undan mutavotir tarzda naql qilingan va mushaflarga yozilgan Qur'oni karimdir⁸.

Faqih Islomda biror narsaning hukmi qanday ekanligini bilmoqchi bo'lsa, avvalo Qur'onga murojaat qiladi. Unda nima hukm bo'lsa, hech qanday ikkilanishsiz qabul qiladi.

Mashhur fiqhshunos olim Abdulvahhob Xalof ko'rsatishicha, fiqhiy-huquqiy masalalar bo'yicha Qur'onda quyidagi sohalarda oyatlar mavjud:

1. Xaqqulloh (amaliy ibodatlar) bo'yicha - 140 oyat.
2. Shaxsiy huquq (oilal, taloq, vasiyat va boshqalar) bo'yicha - 70 oyat.
3. Muomalot yoki fuqarolik huquqi (oldi-sotdi, ijara, garov, qarz, shirkat va boshqalar) bo'yicha - 70 oyat;
4. Jinoyat va jazo bo'yicha - 30 oyat.
5. Sud, sud jarayoni, guvohlik va unga bog'liq bo'lgan masalalar bo'yicha -

⁸ Mulla Jiyvan. Nurul anvor sharhul manor. – Sodiqobod.: Markazul imom al-Buxoriy, 1997. – B. 21.



20 oyat⁹.

6. Davlat huquqi sohasi bo'yicha - 3 oyat (bizning fikrimizcha) mavjud. Hammasi bo'lib Qur'onda - 333 ta huquqiy oyat bor.

Qur'onning boshqa ilohiy kitoblardan asosiy farqi shundan iboratki, u faqatgina aqidaviy-g'oyaviy manba emas, balki qonun va axloq hamdir. Mashhur faylasuf Ibn Rushd (v. 595/1168) fikricha, bu Qur'onning buyuk mo'jizasi hisoblanadi¹⁰. Qur'oni Karim — Islom huquqining ilohiy manbasi bo'lishi bilan birga, mustaqil normativ hujjat sifatida musulmon jamiyatining ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy va huquqiy hayotini tartibga soluvchi yuksak huquqiy vazifani bajaradi. U Allohning insoniyatga yo'llagan oxirgi Kalomi sifatida, faqat diniy-marifiy emas, balki huquqiy me'yorlar manbai hamdir.

Qur'onning huquqiy vazifasi, avvalo, inson va jamiyat hayotining muhim sohalariga oid asosiy qonun-qoidalarini belgilashda namoyon bo'ladi.

Qur'oni Karim oyatlari mujmal (umumiy), xususiy, mutlaq, mug'laq (noaniq), majoziy, haqiqiy, nas (qat'iy dalil) yoki zanni kabi turli ifoda uslublarida kelgan.

«Sunnat» arabcha so'z bo'lib "yo'l" degan ma'noni bildiradi. Sunnat – Payg'ambarimiz sollallohu alayhi vasallam keltirgan diniy yo'ldir.

Hadis – so'zlashuv va xabar berish ma'nosidadir. Ayrim olimlar hadis – eskining ziddi, ya'ni "yangi" ma'nosidadir, deganlar.

Usuliylar istilohida esa:

Sunnat – Nabiy sollallohu alayhi vasallamning so'zlari, fe'llari yoki taqirilaridir¹¹.

Bu ta'rif sunnatning uch navligini ko'rsatadi:

⁹ Abdulvahob Xalloy. Ilmu usul-fiqh va xulosatut-tashri'il-islomiy. – Qohira, 1950. –B.293-294.

¹⁰ Xuzariy. Tarixut-tashri'il-islomiy. – B.24.

¹¹ Ibn Amir.Taqrir. – J. 2. – B.297.



1. Qavliy sunnat.

Bu navdagi sunnat Rasululloh sollallohu alayhi vasallamning turli maqsadlar va munosabatlarda aytgan soʻzlaridir. Bu turdagi sunnatga quyidagi rivoyatni misol qilishimiz mumkin:

Anas ibn Molik roziyallohu anhudan rivoyat qilinadi: “Nabiy sollallohu alayhi vasallam:

“Sizlardan birortangiz, toki men unga ota-onasidan, bolasidan va odamlarning barchasidan suyukliroq boʻlmagunimcha, moʻmin boʻla olmaydi”, - dedilar”.¹²

2. Feʻliy sunnat.

Bu, Rasulloh sollallohu alayhi vasallam qilgan amallaridir. Masalan, namoz va hajni ado etishlari va shu kabi boshqa amallar. Sunnatning bu turiga quyidagilarni misol qilishimiz mumkin.

Anas ibn Molik roziyallohu anhudan rivoyat qilinadi: “Nabiy sollallohu alayhi vasallam qachonki xaloga kirsalar: “Allohim, sendan erkak va urgʻochi jinlardan panoh tilayman”, - der edilar”.¹³

3. Taqririy sunnat.

Bu Rasulloh sollallohu alayhi vasallam ochiq oldilarida sodir boʻlgandan soʻng indamagan, oʻz davrlarida zohir boʻlganida uni maqtagan yoki rozi boʻlgan narsalardir.

Taqririy sunnatga quyidagilarni misol keltirishimiz mumkin.

Abu Said roziyallohu anhadan rivoyat qilinadi:

“Ikki kishi safarga chiqdilar. Namoz vaqti boʻlib qoldi. Ikkovlarining suvi yoʻq edi. Pok tuproq ila tayammum qilib namoz oʻqidilar. Soʻng vaqti chiqmay turib

¹² Buxoriy. Al-jomeʻ as-sahih. – Qohira.: Dorush-shaʻb, 1987. 14-hadis. (Bundan keyin Sahihi Buxoriy)

¹³ Sahihi Buxoriy. 142-hadis.



suv topdilar. Bas, ulardan biri tahorat va namozni qaytardi. Boshqasi qaytarmadi. So'ngra Rasululloh sollallohu alayhi vasallam huzuriga kelib, u zotga bo'lgan narsani aytib berdilar. Shunda u zot namozini qaytarmagan sahobaga:

“Sunnatni topibsan. Namozing o'taveradi”, - dedilar. Tahorat qilib qayta o'qigan shaxsga:

“Senga ikki marta ajr berilur”, – dedilar¹⁴.

Shuningdek, Rasululloh sollallohu alayhi va sallam tarafidan salam savdosiga ijozat berilishini ham taqririy sunnat qatoriga qo'shiladi.¹⁵

Sunnat sanadi e'tiboridan jumhur ulamolar nazdida ikki qismdir: mutavotir va ohod sunnat.

Hanafiylar nazdida esa uch qismdir: mutavotir, mashhur va ohod sunnatlar.¹⁶

“Mutavotir” so'zi lug'atda “ko'plik”, “ketma-ketlik” degan ma'nolarini anglatadi. Ulamolar istilohida esa, Nabiy sollallohu alayhi vasallamdan hadisni rivoyat qilgan birinchi, ikkinchi va uchinchi halqa odamlarining yolg'onga kelishuvga imkon bermaydigan darajada ko'p bo'lishidir.

Misol uchun, bir hadisni Nabiy sollallohu alayhi vasallamdan o'ttiz kishi rivoyat qilgan. Huddi shu hadisni mazkur o'ttiz sahobiydan shu qadardagi yoki undan ham ko'p adaddagi tobeinlar, ulardan esa huddi shuncha taba'a tobi'inlar rivoyat qilgan. Ana o'sha hadis “mutavotir hadis” deyiladi. Hadisning mutavotir bo'lish uchun uning roviylari ma'lum adadda bo'lishi shart qilinmagan. Faqat aql

¹⁴ Abu Dovud. Sunan. – Bayrut.: Dorul kitab al-arabiy, 1346 h. 338-hadis. (Bundan keyin Sunani Abu Dovud.)

¹⁵ Alimov U. Sunnat va Hadis. – Toshkent.: Sharq, 2012. – B.15.

¹⁶ Taftazoniy S. Sharhut talvih alat tavzih. – Bayrut.: Dorul kutub al-ilmiyya, 1996. – J. 2. – B. 297. (Bundan keyin Taftazoniy.Sharhut talvih alat tavzih.)



taqazosi ila shuncha adad kishilar yolgʻonga til biriktirib olishlari mumkin emasligi sobit boʻlsa, kifoya.

Oʻz navbatida, mutavotir hadislar ham ikki xil boʻladi.

1) Lafziy mutavotir.

Bu xildagi hadislarining barcha rivoyatlarda lafzi ham maʼnolari ham bir boʻladi. Misol uchun, bir sahobiy Nabiyl sollallohu alayhi vasallamdan “Kim meni nomimdan qasddan yolgʻon toʻqisa, doʻzaxdagi oʻrnini olaversin” hadisini rivoyat qilgan. Ikkinchi sahobiy ham huddi shu lafz bilan rivoyat qilgan. Uchinchi ham, toʻrtinchi, beshinchi ham va hokazo...

2) Maʼnaviy mutavotir.

Bu hadislarining maʼnosi bir xil boʻlsa ham, oʻsha maʼnoni ifoda etuvchi lafzlar turlicha boʻladi. Bunga ulamolar “Duoda ikki qoʻlni koʻtarish”¹⁷ hadisini misol qiladilar.

Bu borada Nabiyl sollallohu alayhi vasallamdan yuzga yaqin hadisi shariflar rivoyat qilingan. Ularning umumlashtiruvchi maʼno duoda ikki qoʻlni koʻtarish boʻlsa ham, iboralari, holatlari va voqeʼalari turli tuman. Alohida olinganda ular, mutavotir boʻla olmaydi. Ammo rivoyatlarning umumiy maʼnosi – duoda ikki qoʻlni koʻtarish – mutavotir darajasiga etgan.

Mutavotir hadis Nabiyl sollallohu alayhi vasallamdan ekani qatʼiy boʻlib, unga amal qilish vojibdir. Mutavotir hadis ila sobit boʻlgan hukmni inkor qilgan kishi dindand chiqib, bunday hukmni eʼtirof etib, lekin unga amal qilmagan odam qattiq gunohkor boʻladi.

¹⁷ Sunani Termiziy. 3386-hadis.



Mashhur sunnat Rasululloh sollallohu alayhi vasallamdan qilingan rivoyat bo'lib, sanadning sahobalar tabaqasida mutavotir darajasiga roviylardan bitta yoki ikkita etmay qolgan xabardir.

Foydalanilgan manba va adabiyotlar ro'yxati

1. Shayx Abdulaziz Mansur. Qur'oni Karim ma'nolarining tarjima va tafsiri.– T.: TIU, 2007.
2. Alimov U. Sunnat va Hadis. – Toshkent.: Sharq, 2012.
3. Mustafu I. Usulul fiqh fi nasijihil jadid. – Bog'dod.: Alxanso, 2002.
4. Xabibulin T. Il'm usul' al'-fiqh. – M.: Islamxaus. 2009.
5. Xalof Abdulvahhob. Usulul-fiqh. 2 jild. / Arab tilidan Salohiddin Muhiddin tarjimasi. -T.: «Adolat», 1997.
6. Zayd Mustafo. Almaslaha fit tashriy'il islamiy. – Misr.: Dorul yusr, 1954.
7. Butiy M. Zavobitul maslaha. –Misr.: Risola, 1965.
8. Shanqitiy M. Al-masolih al-mursala.– Madina islom universiteti, 1990.
9. Muhammad Yusuf M. Usulul fiqh.– Toshkent.: Sharq”, 2010.
10. Muhammad Yusuf M. Ixtiloflar, sabablar, yechimlar. – Toshkent.: Sharq. 2011.
11. Husniddinov Z. Islom: yunalishlar, mazhablar, oqimlar.–T.: Movarounnahr, 2000.
12. Jo'zjoniy. A.Sh. Islom huquqshunosligi. Hanafiy mazhabi va O'rta Osiyo faqihlari. – T.: TIU, 2002.
13. Ibn Amir Hoj. At-Taqrir vat-tahbir sharhut-tahrir. – Bayrut.: Dorul fikr. 1996.
14. Shavkoniy. Irshodul fuhul. – Bayrut.: Dorul kutub al-arabiy, 1999.
15. I.Tabariy, Erondagi dunyoqarashlar va ijtimoiy harakatlar haqida tekshirishlar. –Kobul.: Davlat chop va nashr qo'mitasi, 1361 h.y
16. Xuzariy M. Usulul fiqh. – Misr.: Tijoriya, 1969.